

**ZAMONAVIY NEMIS TILI OAVDA INGLIZCHA O‘ZLASHMALARNING
LINGVISTIK VA SEMANTIK XUSUSIYATI**

(“News” axborot jurnali materiallari asosida) O‘z MU o‘qituvchisi
Umarova Zamira

Annotatsiya: Ushbu maqolada ommaviy axborot vositalari materiallari asosida nemis tiliga ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarning integratsiyalashuv darajasi va lingvistik xususiyatlari xususida so‘z yuritiladi. Maqolada qisman o‘zlashma (*Fremdwort-chet so‘zlar*) va to‘liq o‘zlashmalarni (*Lehnwort*) farqlash mezonlari, o‘zlashgan so‘zlarning qabul qiluvchi tilga (nemis tiliga) muayyan bosqichlarda moslashishi, kalkalashtirish turlari hamda “soxta anglisizmlar” (*Scheinentlehnung*) muammosi haqida fikrlar bildiriladi. Xulosalar nemis publitsistikasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashish tendensiyasi yetakchi ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: chet so‘zlar, to‘liq o‘zlashma, adaptatsiya, assimilyatsiya, integratsiya, anglisizmlar, kalkalashtirish, soxta anglisizmlar.

Аннотация: В данной статье на материале современных немецкоязычных средств массовой информации исследуются уровень интеграции и лингвистические особенности английских заимствований. В работе рассматриваются критерии разграничения частичных заимствований (*Fremdwort* / иностранные слова) и полных заимствований (*Lehnwort*), поэтапная адаптация заимствованной лексики в принимающем (немецком) языке, типы калькирования, а также проблема «ложных англицизмов» (*Scheinentlehnung*). Сделанные выводы свидетельствуют о доминировании тенденции прямого заимствования в немецкой публицистике.

Ключевые слова: иностранные слова, полные заимствования, адаптация, ассимиляция, интеграция, англицизмы, калькирование, ложные англицизмы

Abstract: This article examines the integration level and linguistic features of English loanwords based on contemporary German mass media materials. It discusses the criteria for distinguishing between partial borrowings (*Fremdwort* / foreign words) and total borrowings (*Lehnwort*), the gradual adaptation of borrowed words into the recipient (German) language, the types of calquing (loan translation), and the issue of "pseudo-anglicisms" (*Scheinentlehnung*). The conclusions demonstrate that the trend of direct borrowing is predominant in German journalism.

Key words: foreign words, total borrowings, adaptation, assimilation, integration, anglicisms, calquing, pseudo-anglicisms



Globalashuv va axborot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi natijasida bugungi kunda tillarning o‘zaro bir-biriga ta’siri va leksik qatlamlarning boyib borishi yanada ham faol kechmoqda. Dunyo miqyosida ingliz tilining xalqaro muloqot va ilm-fan tili sifatidagi yetakchilik roli boshqa tillar qatori german tillari oilasiga mansub bo‘lgan nemis tili leksik tizimiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, zamonaviy nemis tili ommaviy axborot vositalari (OAV) tilida inglizcha leksik birliklarning — anglisizmlarning qo‘llanish ko‘lami keskin ortib bormoqda. Matbuot tili jamiyatdagi ijtimoiy va lisoniy o‘zgarishlarni birinchilardan bo‘lib o‘zida aks ettiruvchi o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy ko‘zgu vazifasini o‘taydi. Shu bois, zamonaviy nemis tili publitsistikasi materiallari asosida xorijiy so‘zlarning o‘zlashtirilishi xususiyatlarini o‘rganish germanistika va qiyosiy tilshunoslikda doimo dolzarb hisoblanadi.

Tilshunoslikda chet tildan kirib kelgan so‘zlarni tizimlashtirish va ularning integratsiyalashuv darajasini belgilash murakkab masalalardan biridir. An’anaga ko‘ra, nemis tili leksikologiyasida o‘zlashmas so‘zlarning qabul qiluvchi til tizimiga qay darajada moslashganiga qarab ikki guruhga ajratiladi: **qisman o‘zlashgan so‘zlar** ya’ni chet so‘zlar (*Fremdwort*) va **to‘liq o‘zlashgan so‘zlar** (*Lehnwort*). Qisman o‘zlashgan so‘zlar o‘zining xorijiy grafik-fonetik va morfologik qiyofasini saqlab qolgan, qabul qiluvchi til muhitiga hali butunlay singib ketmagan birliklar hisoblansa, to‘liq o‘zlashmalar esa nemis tili qonuniyatlariga mutloq bo‘ysunib, tub nemischa so‘zlardan deyarli farq qilmaydigan darajaga yetgan leksik qatlamdir. Biroq, sinxron aspektdan yondashilganda, ushbu ikki tushuncha o‘rtasidagi chegara ko‘p hollarda nisbiy xarakterga ega bo‘ladi.

Inglizcha leksikaning nemis tiliga muayyan bosqichlarda moslashishi murakkab lisoniy jarayon bo‘lib, u nafaqat so‘zning orfografik yoki morfologik shaklini, balki uning semantik (ma’noviy) tuzilishini ham o‘zgartiradi. Hozirgi davr nemis matbuotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashish tendensiyasi bilan bir qatorda, chet tili ta’sirida strukturaviy kalkulashtirish (tarjima o‘zlashmalari) va mavjud nemischa so‘zlarning ma’no doirasi kengayishi (semantik o‘zlashma) faol kuzatilmoqda. Bundan tashqari, nemis tilida inglizcha o‘zak so‘zlar asosida sun’iy yaratilgan va asl ingliz tilida mavjud bo‘lmagan **“soxta anglisizmlar”** (*Scheinentlehnung*) muammosi ham zamonaviy leksikologiyada alohida tadqiqot obyekti tashkil etadi.

Odatda, qisman o‘zlashgan so‘zlar va to‘liq o‘zlashgan so‘zlar o‘rtasidagi asosiy farq chet til leksik birlikning nemis tili qonuniyatlariga qanchalik bo‘ysunganligi, ya’ni uning integratsiya darajasi (*Integrationsgrad*) bilan o‘lchanadi. Sinxron nuqtai nazardan qaralganda, nemis tili muhitiga chuqur o‘rnashib ketgan va to‘liq moslashgan o‘zlashmalarni tub nemischa so‘zlardan ajratish qiyin. So‘zning bunday moslashganlik



darajasini belgilovchi asosiy mezonlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

-Morfologik xususiyati: Nemis tiliga xos bo'lgan turlanish, tuslanish va grammatik jins (*Genus*) ko'rsatkichlarining qabul qilinishi;

-So'z yasalishi faolligi: Xorijiy o'zaklarning nemis tili qoidalari asosida murakkab (*Komposita*) va yasama (*Derivate*) so'zlar hosil qilishda ishtirok etishi;

-Fonetik va ortografik xususiyati: So'z talaffuzi va imlosining mahalliy nutq hamda yozuv qoidalariga to'liq mos kelishi.

Tilshunos olim K. Heller (1966) o'tkazgan ijtimoiy-lingvistik so'rovnomalar shuni ko'rsatadiki, kundalik nutqda faol qo'llanadigan inglizcha so'zlar so'zlovchilar tomonidan xuddi tub nemischa so'zdek idrok etiladi. Aksincha, kam uchraydigan sof nemischa so'zlar ba'zan yot element sifatida qabul qilinishi mumkin. Demak, so'zning daxldorligini uning tashqi ko'rinishi emas, balki tildagi funksional faolligi belgilaydi. G'arb germanistikasida xorijiy so'zlarni tizimlashtirish bo'yicha bir qancha tasniflar mavjud. Masalan, P. Yablonski (1990) ularni uchta guruhga (leksik, semantik va sohta o'zlashmalar) ajratsa, H. Fink (1970) tasnif asosiga so'zning almashinish darajasini (nolli, qisman va to'liq almashinuv) qo'yadi. Taniqli tilshunos B. Karstensen (1979) esa masalani birmuncha soddalashtirib, o'zlashmalarni yaqqol (*evident*) va yashirin (*latent*) turlarga ajratishni taklif etadi.

1. To'g'ridan-to'g'ri o'zlashish.

W. Fleysher (1987) yondashuviga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri o'zlashmalar nemis tiliga hech bir o'zgarishsiz o'tgan, o'zining xorijiy talaffuzi, yozilishi va morfologik qiyofasini to'liq saqlab qolgan, ya'ni tabiatan qisman o'zlashma (*Fremdwort*) hisoblangan birliklardir. Biroq, B. Karstensen (2001) bu borada unchalik qat'iy qoidalarga yopishib olmaslik tarafdori bo'lib, inglizcha otlarning bosh harfda yozilishi yoki fe'llarga nemischa infinitiv qo'shimchalarining (*-en, -ieren*) qo'shilishini (masalan: *campen < to camp, shampooieren < to shampoo*) to'g'ridan-to'g'ri o'zlashish jarayoniga xalaqit bermasligini ta'kidlaydi.

Avstriyaning nufuzli "News" axborot jurnali materiallari tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi nemis publitsistikasida inglizcha so'zlarni asl holatida saqlab qolish tendensiyasi yetakchilik qilmoqda. Nemis tilida so'zlashuvchilar orasida ingliz tilini bilish darajasi yuqori bo'lgani sababli, yangi kirib kelayotgan leksika imlo jihatidan o'zgartirilmaydi. Ammo nemis tili orfografiyasining bosh talabi bo'lgan barcha otlarni bosh harf bilan yozish qoidasi inglizcha o'zlashmalarga ham majburiy tatbiq etilmoqda. Masalan: *Beauty, Womanizer, Covergirl, Mascara, Fashion, Kicker, Dress, Match, Event, Snack, Highlight, Talk, Song, Story, Sticker, Style, City, Bag, Dinner, Shuttle, Dribbling, Kids, Shopping, King, Mentoring, Trash, Power, Budget, Statement,*



Monster, Society, Ranking.

Fe'llarda inglizcha o'zaklarga nemischa infinitiv ko'rsatkichlarining silliq birikishi kuzatiladi: *parken, surfen, promoten, filmen, dealen, managen, foulten, downloaden, liften, stylen, pushen, killen, checken, boykottieren, starten, voten, testen, designen.* Qiziqarli jihati, "News" jurnali sahifalarida ayrim fe'llar (masalan, *shop*) ham sof inglizcha variantda (*shop*), ham nemischa shaklda (*shoppen*) parallel ravishda qo'llangan.

2. Funksional va ma'noviy o'zlashmalar guruhlari

2.1. Ehtiyoj tufayli o'zlashgan leksika (*Bedürfnisentlehnung*). Bunday so'zlar so'zlar nemis tilida mutlaqo muqobili bo'lmagan yangi buyumlar, texnikaviy yangiliklar va ijtimoiy tushunchalarni nomlash uchun qabul qilinadi. "News" jurnali materiallarida AKT va kompyuter sohasiga oid o'nlab shunday birliklar ko'zga tashlanadi. Masalan: *Whirlpool, Wellness, Bypass, Touchphone, Roaming, Internet, Chat, Weblog, Laptop, Modem, Video-Streaming, Playstation, Pixel, Laser, Leasing.* Chang (2005) ta'kidlaganidek, fransuz tili purizm an'alariga tayanib inglizcha so'zlarga qarshi milliy neologizmlarni muvaffaqiyatli joriy qilgan bo'lsa, nemis tili texnikaviy tushunchalarni inglizchadan to'g'ridan-to'g'ri qabul qilishga moyil bo'ldi.

2.2. Milliy-madaniy ekzotizmlar (*Bezeichnungsexotismus*). Bular ingliz tilli davlatlarning turmush tarzi, madaniy va ijtimoiy-siyosiy hayotiga xos bo'lgan realiyalardir. Ular matnda xorijiy muhit koloridini jonlantirish uchun xizmat qiladi: *Cent, Dollar, Euro, Hi, Good by, Wallstreet, Broadway, Hollywood, Brooklyn, Trump Tower.* Siyosiy publitsistikada davlat institutlari nomlari ham shu guruhga kiradi: *Foreign Office, State Department, Jointventure, High School, First Lady, Super Tuesday, Primaries, Standing Oventions.*

2.3. Internatsionalizmlar (*Internationalismus*)

Ko'plab dunyo tillarida bir xil shakl va ma'noda ishlatiladigan xalqaro terminlardir: *Festival, Holocaust, Smog, Bestseller, Logo, Laser, Radio, Hit, Trailer, Image, Computer, E-Mail, Display, Job, Business, Marketing, Management.* Axborot texnologiyalariga oid ko'plab xalqaro so'zlar akronimlar shaklida uchraydi: *Hardware, Software, USB, LAN, IT, GB, CGI, EPG.*

3. Takroriy o'zlashish va kalkalashtirish jarayonlari

3.1. Takroriy o'zlashish (*Doppelentlehnung*)

Gregor (1983) ta'rifiga ko'ra, biror so'zning til tarixida ikki yoki bir necha marta turli ijtimoiy ehtiyojlar bilan qayta o'zlashtirilishi takroriy o'zlashish deyiladi. "News" jurnalida tahlil qilingan misollar: ***Hobby*** so'zi ilgari *Steckenpferd* shaklida kalka qilingan bo'lsa, bugun original inglizcha shaklida qayta o'rnamshdi. ***Fashionable*** /



Fesch - birinchi marta kirganda nemischa talaffuzga moslashib *fesch* shaklini olgan, keyinchalik original imlosida (*fashionable*) qayta qabul qilingan. *Shop*- XIX asrda kirib unutilgan bo'lsa, bugun murakkab so'zlar yasovchi faol elementga aylandi (*Copy-Shop, Postershop*).

3.2. Strukturaviy kalkalar va tarjima turlari

Morfemama-morfem qilingan aniq tarjima nusxalari (kalkalar) nemis tili so'z boyligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Rass (2005) kalka usulida so'z yasash tarjima turlari ichida eng ko'p tarqalganini ta'kidlaydi. Jurnal materiallarida quyidagi kalkalashtirish turlari aniqlandi:

-**So'zma-so'z tarjima o'zlashmalari (*Lehnübersetzung*):** *Seifenoper* (soap opera), *Wochenende* (weekend), *Supermarkt* (supermarket), *Fußball* (football), *herunterladen* (to download).

- **Qisman tarjima (*Teillehnübersetzung*):** *Kopfhörer* (headphones), *Wolkenkratzer* (sky-scraper), *Titelgeschichte* (cover story).

- **Ibora kalkalari (*Lehnwendung*):** *das Beste aus etwas machen* (to make the best of something), *Prioritäten setzen* (to set priorities), *im gleichen Boot sitzen* (to be in the same boat), *Zeit ist Geld* (time is money).

- **Erkin ma'no tarjimasi (*Lehnübertragung*):** *abtörnen* (to turn off), *austricksen* (to outwit, to trick).

-**Yangi so'z ijodi (*Lehnschöpfung*):** *Kontaktpflege* (public relations), *Unternehmensberatung* (management consulting), *Klimaanlage* (air-conditioning). Vierek va Rass kabi olimlar bu turda inglizcha qism qatnashmasligini ro'kach qilib, uni o'zlashma hisoblash mumkinmi, degan nazariy savolni o'rta tashlaydilar.

4. Ma'no ko'chishi va sohta anglisizmlar muammosi

4.1. Semantik o'zlashma (*Bedeutungsentlehnung*)

Bu hodisada nemis tilidagi mavjud so'zning tashqi shakli o'zgarmaydi, biroq inglizcha muqobilining ta'siri ostida uning ma'no tarkibiga yangi semema qo'shiladi:

- **kontrollieren (to control):** Ilgari faqat "tekshirmoq" ma'nosida bo'lsa, endi „boshqarmoq, ta'sir o'tkazmoq“ ma'nosini oldi.

- **realisieren (to realise):** "Amalga oshirmoq" ma'nosidan tashqari "anglab yetmoq" ma'nosini ifodalamoqda.

- **feuern (to fire):** "O't ochish" ma'nosiga qo'shimcha ravishda "ishdan bo'shatmoq" ma'nosini o'zlashtirdi.

4.2. Soxta anglisizmlar (*Scheinentlehnung*)

B. Karstensen tasnifiga ko'ra uch guruhga bo'linadigan ushbu so'zlar tashqi tomondan inglizcha ko'rinadi, lekin ingliz tilining o'zida mavjud emas yoki mutlaqo boshqa



ma'noni anglatadi:

-Leksik soxta o'zlashmalar: Nemis zaminida yaratilgan sun'iy inglizcha formalar: *B-Use-(Lederjacke)* (second-hand ma'nosida), *Goalgetter* (to'purar), *Neckholder* (halterneck ko'ylak), *Talkstar* (talk-show host).

-Morfologik soxta o'zlashmalar: Inglizcha so'z uzun bo'lgani uchun nemis tilida noto'g'ri qisqartiriladi: *Pulli (pullover)*, *Happy End (happy ending)*, *Trench (trench-coat)*, *Promi (prominent)*. Jurnalda *Promi* ishtirokida o'nlab birikmalar aniqlangan: *Promi-Fan*, *Top-Promis*, *Promi-Hochzeit*.

-Semantik soxta o'zlashmalar: *Handy* (inglizchada sifat — „qulay“, nemischada ot — „mobil telefon“); *Eventer* (inglizchada ot sporti, nemischada "shoumen"); *Mobben/Mobbing* (inglizchada muxlislar ta'qibi, nemischada ishxonadagi tazyiq).

Kamdan-kam hollarda qayta **o'zlashish (*Rückentlehnung*)** hodisasi ham uchraydi, ya'ni qadimda nemis tilidan inglizchaga o'tib, asrlar o'tib inglizcha shaklda qaytib kirgan so'zlar: *Harm*, *harmlos*, *Halle*, *Heim*.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, bugungi nemis OAV tilida to'g'ridan-to'g'ri o'zlashmalar miqdor jihatidan yaqqol ustunlik qilmoqda. Inglizcha so'zlarni orfografik o'zgartirishlarsiz qabul qilish tendensiyasi globallashuv asrida ingliz tilining yetakchilik roli va jamiyatning ushbu tilni yuqori darajada bilishi bilan izohlanadi. To'g'ridan-to'g'ri o'zlashmalar bilan bir qatorda kalkalar, gibrid shakllar va semantik o'zgarishlar ham nemis tili leksik qatlamini boyitib, leksikologiyada o'zlashma turlarining uzviy bir qismi sifatida e'tirof etilaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **Fink H.** Asset and Liability: English Loans in Contemporary German. – Munich, 1970.
2. **Fleischer W.** Wortbildung der deutschen Gegenwartssprache. – Leipzig, 1987.
3. **Gregor H.** Phänomene der Doppelentlehnung latinizm-anglicizm. – Berlin, 1983.
4. **Heller K.** Das Fremdwort in der deutschen Sprache der Gegenwart. – Berlin, 1966.
5. **Karstensen B.** Anglizismen-Wörterbuch: Der Einfluss des Englischen auf den deutschen Wortschatz. – Berlin/New York, 2001.
6. **Rass M.** Lehnübersetzungen und Lehnübertragungen im modernen Deutsch. – Wien, 2005.
7. **“News” jurnali** – Avstriya haftalik axborot jurnali / VGN Medien Holding. – Vena, 2024–2026. – URL: <https://www.news.at>